

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**“GEOLOGIYA VA KONCHILIK ISHI” FAKULTETI
“METALLURGIYA” KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

**5310300 – “Metallurgiya” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Sulfidli rux boyitmalarini oksidlovchi kuydirish jarayoni va uni
amalga oshirish uchun asosiy dastgoxni xisoblash va tanlash. Qayta ishlash
unumdorligi boyitma bo‘yicha 210t/sut”**

Kafedra mudiri:

Xudoyarov S. R.

Bitiruv ishi rahbari:

Berdiyarov B.T.

Bitiruvchi talaba:

7-11 gr RMM. Nazarov B. J.

Toshkent – 2015 y

Mundarija

	Kirish	3
I	Jarayonnig nazariyasi va amaliyoti	6
	1.1. Rux metallurgiyasini xom ashyo tavsifi va asosiy texnologiyalari.....	6
	1.2. Sulfidli rux boyitmasini oksidlovchi kuydirish jarayonining nazariyasi va amaliyoti	8
	1.3. Sulfidli rux boyitmasini «Qaynar qatlam» pechida kuydirish amaliyoti.....	12
	1.4. Kuydirilgan boyitmani tanlab eritish jarayonlari	15
II	Texnologik hisoblar	26
	2.1. Qaynar qatlam pechlarida rux boyitmalarini kuydirish jarayonini xisoblash.....	26
	2.2. Chiqayotgan xamda kuydirish uchun kelayotgan xavoning miqdorini hisoblash.....	29
	2.3. Chang va kuyindi miqdorlarini xisoblash.....	31
	2.4. Rux boyitmalarni kuydirish jarayonining issiqlik balansini xisoblash.....	36
	2.5. Asosiy dastgohni tanlash va hisoblash.....	39
III	Iqtisodiy qism	40
IV	Hayot faoliyati xavfsizlagi	50
	Xulosa	56
	Foydalanilgan adabiyotlar	57

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish kontsepsiyasida yoritilgan eng muhim muammolardan biri, bu mamlakatning boy mineral-xomashyo resurslaridan ratsional va kompleks foydalanishdir.

O'zbekiston metallurgiya sanoati o'z mavqeini yildan-yilga mustahkamlab bormoqda. Negaki, qudratli mineral-xomashyo bazasi va tog'-kon sanoati korxonalarining mavjudligi tufayli mamlakatimiz Markaziy Osiyo mintaqasida qora va rangli metall ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi [1].

Bir qator foydali qazilmalar (metallar) bo'yicha O'zbekiston tasdiklangan zaxiralar va istiqbolli rudalar jixatdan MDH dagina emas, balki butun dunyoda ham etakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Shuningdek 2009 yilda Respublikamizda qabul qilingan Inqirozga qarshi dasturi doirasida, qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish choralarni amalga oshirilishi ko'zda tutiladi [2].

Malakaviy bitiruv ishning mavzusi rux ishlab chiqarishiga tegishli, rux kuyindilarini tnalb eritish bag'ishlangan bo'lganligi sababli, Respublikamizda Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati tarkibidagi rux zavodi haqida qisqa ma'lumot keltirish zarur.

Bir qator foydali qazilmalar (metallar) bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zaxiralar va istiqbolli rudalar jixatdan MDH dagina emas, balki butun dunyoda ham etakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Ko'pchilik mineral xom ashyoning tayyorlangan zahiralar mavjud tog'-kon sanoati komlekslarining uzoq muddat davomida ishlab turishini ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga bir qator strategik foydali qazilmalarni qazib olish quvvatlarini oshirishga ham imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlari MDHdagi boshqa mamlakatlarnikidan o'zining juda katta zahiralari bilangina emas, balki bir qator xususiyatlari bilan ham ajralib turadi, bular quyidagilardir:

- tabiiy va mineral xom ashyo zahiralari yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayok kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;
- foydali qazilmalarning ko'pgina turlari tarkibidagi foydali komponentlar yuqori darajada bo'libgina qolmay, katta miqdorda yulduz elementlarga ham ega;
- konlarning ko'pchiligida ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy. Bu texnologiya foydali komponentlarni ko'p miqdorda chiqarishni va jahon bozorida haridorgir mahsulot olishni ta'minlaydi;
- ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan mintaqalarda joylashgan. Ular transport yo'llariga va xududlar o'rtasida resurslarni tashish vositalariga, shu jumladan suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur tpancportiga ega;
- ishlab chiqarish va sosial infrastruktura, malakali kadrlar, tog'-kon mutaxassislari tayyorlaydigan oliy va o'rta mahsus o'quv yurtlari tizimi mavjud [1].

O'zbekiston rangli metallar — mis, qo'rg'oshin, rux, volfram va shu guruxga kiruvchi boshqa metallarning aniqlangan zaxiralariga ega. Bu zahiralardan ruda asosan ochiq usulda kazib olinadi. Bu esa konlarning rentabelli ishlashini ta'minlaydi. Ishlab turgan konlar mis va unga yo'ldosh metallarni 40-50 yil, rux va ko'rg'oshinni 100 yildan ko'proq vaqt qazib olishni ta'minlaydi.

Rangli metallar rudalarining zahiralari asosan Olmaliq ruda maydonida jamlangan. Qalmaqir koni noyob konlardan bo'lib, u mis-molibden rudalarini qazib chiqarish bo'yicha chet eldagilardan ancha ustun turadi. Bu konning rudasini Olmaliq kon-metallurgiya kombinata qayta ishlaydi. Kombinat O'zbekistondagi eng yirik korxonalardan biridir. Bundan tashqari, istiqbolli Dalnee mis koni topilgan. Uning mis, molibden, oltin, kumush, reniy, tellur, selen va oltingugurt zaxiralari katta.

Qo'rg'oshin-rux asosan Jizzax viloyatining Uchquloch va Surxondaryo viloyatining Xondiza konlarida jamlangan.

Xondizadagi konda qo'rg'oshin va rux bilan birga mis, kumush, kadmiy, selen, oltin va indiy bor [2].

Ishlab chiqarish xajmi bo'yicha rux, alyuminiy va misdan keyin uchinchi o'rinda turadi. Bir yilda dunyoda 5-7 mln.t rux ishlab chiqariladi. Zavodlarning ishlab chiqarish imkoniyati 75-85%larga foydalaniladi. Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati tarkibiga kiradi. Zavodning ishlab chiqarish imkoniyati bir yilda 1000 ming tonnadan ziyodroqdir.

Respublikamizda Olmaliq tog' – metallurgiya kombinati tarmog'ida rux zavodi o'z faoliyatini olib bormoqda. Zavod 1970 yilda ishga tushirilgan bo'lib, bu sanoatning metalli rux ishlab chiqarish bo'yicha korxona, ishlab chiqarish kuvvati yiliga — 120 ming tonnani tashkil etadi. Zavod qurgoshin - rux konlari ishlab bergan 20 - 25 ming tonna o'z ruxli xom ashyosini qayta ishlab chiqarishga va turli mamlakatlardan 100 ming tonna keltirilgan ruxli boyitmaga mo'ljallangan.

Zavod kuyidagi sex va bulimlardan iborat:

- to'rtta qaynovchi qatlam (QQ) pechi bilan jixozlangan kuydirish sexi;
- 22 ta reaktor va 18 ta quyuqlashtiruvchi uskuna bilan jixozlangan tanlab eritish sexi;
- rux elektroliz sexi va bo'lak rux kuyulmasini olish uchun eritish bulimi;
- rux kukunini velsevlash va vozgon uchun vels sexi, ya'ni kuvursimon aylanma pechda qayta ishlash;
- yiliga 140 ming tonna sulfat kislota ishlab chiqaradigan, oqova gaz bilan ishlaydigan sulfat kislota olish sexi;
- kadmiy sexi, kadmiy metalli unumdorligi yiliga 560 tonna va 5 ming tonna rux kuporosi hamda yiliga 1200 kg metalli indiy ishlab chiqarish bo'linmalari.

Ishlab chiqarish xajmi bo'yicha rux, alyuminiy va misdan keyin uchinchi o'rinda turadi. Bir yilda dunyoda 5-7 mln.t rux ishlab chiqariladi. Zavodlarning ishlab chiqarish imkoniyati 75-85% larga foydalaniladi.

I. JARAYONNIG NAZARIYASI VA AMALIYOTI

1.1. Rux metallurgiyasini xom ashyo tavsifi va asosiy texnologiyalari

Ishlab chiqarish xajmi bo'yicha rux, alyuminiy va misdan keyin uchinchi o'rinda turadi. Bir yilda dunyoda 5-7 mln.t rux ishlab chiqariladi. Zavodlarning ishlab chiqarish imkoniyati 75-85% larga foydalaniladi. Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati tarkibiga kiradi. Zavodning ishlab chiqarish imkoniyati bir yilda 1000 ming tonnadan ziyodroqdir[3,4].

Xorijiy davlatlarda rux ishlab chiqarish quyidagi davlatlarda mavjud: AQSH, Yaponiya, Rossiya, Kanada, Avstraliya, Olmoniya, Frantsiya, Bolgariya, Polsha, Qozog'iston va boshqalardir.

Dunyo miqyosida ishlab chiqilgan ruxning o'zlashtirilishi quyidagichadir,%: oq tunika olish 36; latun va bronza olish 26; quymakorlik 26; rux prokati 3; kimyo mollari 6,5.

Rux xom ashyosining tavsifi

Tabiatda rux asosan sulfid holatida uchraydi. Bir xil rux birikmalari - bu kislorod bilan bog'langan oksid zahiralaridir. Sanoatda keng tarqalgan va ishlab chiqarishda tushgan bu – kompleks rux – qo'rg'oshin sulfidli polimetalmis rudalardir. Bu rudalarda asosiy metallardan tashqari, yana mis, kadmiy, nodir va kamyob metallar bor. Zamonaviy rudalarda ruxning miqdori 1,5 %, rux-qo'rg'oshin rudalarda esa 1,0 – 1,5% Zn va 0,4 -0,5% Pb bor. Bu rudalarni qayta ishlashdan oldin boyitiladi. Asosiy boyitish usuli - selektiv flotatsiyadir. Oldin rudadan kollektiv rux-qo'rg'oshin boyitmasi olinib, keyin u alohida rux va qo'rg'oshin boyitmalariga ajratiladi.


Sulfidli rudalarda rux asosan sfalerit – ZnS shaklda uchraydi. Oksidlangan rudalarda rux karbonat $ZnSO_4$ (smitsonit) va gidrotsinkiy $ZnSO_3 \cdot 2 ZnS (OH)$ va silikat (valletit Zn_2SiO_4) turlarda uchraydi.

Ruxni boyitmaga o'tish darajasi 70-85%ni tashkil qiladi. Rux boyitmasini taxminiy miqdori, %: Zn 40-60; Pb 0,2-3,5; Ca 0,15 -2,3; Fe 2,5-13; S 30-35; Ca 0,1-0,5; As 0,03-0,3; Sb 0,01-0,07; Ca 0,001-0,013; Jn 0,001-0,07. Boyitmani maydaligi 30-35% (-75 mkm)-70-90% (-75mkm) masofada o'zgaradi. Boyitmani

muhim texnologik xususiyatlari bo'lgan zichlik: $-3,4-4,3 \text{ g/sm}^3$; to'kilmoq massasi $1,9-2,3 \text{ g/sm}$, namlik 10-16%, quritilgandan keyin 6-8 %.

Ruxni xom ashyodan ajratib olish asosiy texnologiyalar

Sulfidli rux xom ashyosini bevosita erkin holatigacha tiklash mumkin. Masalan:



Ammo, kuchli tiklovchi moddalar H_2 va CO samarador emasdir. Masalan, keltirilgan reaksiya uchun 1000°S da muvozanat konstantasi teng:

$$K_p = P_{\text{Zn}} \cdot P_{\text{H}_2\text{S}} / P_{\text{H}_2} = 2,1 \cdot 10^{-4}$$

Bundan xulosa, yuqori harorat va bosimlarda ham tiklanish mahsulotlarini chiqishi judayam kam. Amaliyotda sulfidlarni oksidlantirish keyin afzalroqdir.

Sanoatda ZnS ni ZnO ga oksidlanishini pirometallurgik usul bilan amalga oshiriladi. ZnO ni tiklanishi esa pirometallurgik yoki gidrometallurgik usullar bilan amalga oshishi mumkin. Oxirgi usul bo'yicha ZnO ni sulfat kislotasida eritib elektroliz yordamida erkin metall olinadi [5].

Ruxni sulfid boyitmasidan ajratib olish ZnS , ZnO va Zn larni xususiyatlariga bog'liqdir. Ruxni oksid va sulfidi yuqori haroratda eriydi. Masalan, ZnS atmosfera bosimida 1200°C dan ziyod haroratda porlanadi va 2000°C gacha eriydi. ZnO esa 1975°C da suyuq holatiga o'tadi. Shuning uchun ZnS ni ZnO ga oksidlanishini yuqori haroratlarda katta tezlik bilan yuborilishi mumkin. Rux sulfidini oksidlanishi ekzotermikdir va jarayon uchun qo'shimcha yoqilg'i sarflamaydi.

Ruxni oksiddan tiklash uchun ko'p energiya sarflanadi. Shuning uchun pirometallurgik tiklanish yuqori harorat va tiklovchi moddaning miqdorligida olib boriladi. Elektrolitik tiklanish ham elektr quvvatini katta xajmda sarflanishi bilan bog'liqdir. Metall rux oson suyuq holatga o'tadi – erish harorati 419°C , 907°C da bug' holatiga o'tadi, shuning uchun pirometallurgik tiklanishda bug' holatida ajralib chiqadi.


Piro va gidrometallurgik usullarni xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Pirometallurgik usulda yakunlovchi mahsulot bo'lib g'ovak kuydirma (kuyindi) olinadi. Kuydirish davrida modda oltingugurtni yo'qotib, keyin qotishma

shaklga o'tadi. Qotishma olish uchun harorat 1300-1400 °C gacha ko'tarilishi kerak. Buni aglomeratsiya jarayonida amalga oshiriladi. Aglomerat keyinchalik qattiq uglerod yordamida tiklanadi.

Gidrometallurgik usul bo'yicha kuydirishni 900-1000 °C da kuyindi-kukun olishga qaratiladi. Olingan kukun sulfat kislotasida eritiladi. Eritmadan rux elektroliz bilan erkin holatida ajratib olinadi, sulfat kislota esa regeneratsiya bo'lib qaytadan tanlab eritishga yuboriladi.

Rux boyitmasini yuqori haroratda oksidlantirish, hozirgi payitda, asosiy texnologik usuldir. Kanadada olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki rux sulfidini eritmadagi kislorod bilan ham oksidlantirsa bo'lar ekan:



Jarayon avtoklavda 1000 °C dan ziyod va umumiy bosim 10^5 Pa dan yuqori sharoitlarda olib boriladi. Sanoatda bunday texnologiyani qo'llash qiyindir.

Texnologik sxemalarni tahlili shuni ko'rsatib turibdiki, jarayon bir necha bosqichdan iboratdir. Amaliyotda esa, sxemalar ancha murakkabroqdir.

Bunga ikkita sabab bor:

1) Xosh ashyoda mavjud bo'lgan bir qator ruxga yo'ldosh elementlarni ajratib olish kerakligi;

2) Xom ashyoni qayta ishlash uchun tayyorlash jarayonlarini tashkil etish.

Dunyo miqyosida taxminan 20% pirometallurgik va 80% rux pirometallurgik usullar bilan olinadi.

1.2. Sulfidli rux boyitmasini oksidlovchi kuydirish jarayonining nazariyasi va amaliyoti

Boyitmani kuydirishdan asosiy maqsad - sulfidli ruxni tiklanish jarayoniga tayyorlangan oksid holatiga tezroq va kam sarf harajatlar bilan o'tkazishdir. Bunda kuyindi shunday holatda olinishi kerakki, undan yuqori samaradorligi bilan keyingi texnologik jarayonlarini o'tkazishga imkon yaratilishi lozimdir. Shuning bilan bir

qatorda, kuydirishda ajralib chiqayotgan oltingugurt birikmalarini to'laroq darajada sulfat kislotasi olish uchun yuborishdir [3,6].

Pirometallurgik usul uchun kuyindini aglomerat (qotishmani bir turi) shaklda olinadi va bu modda keyin yuqori haroratda qattiq uglerod yoki boshqa tiklovchilar yordamida tiklanadi.

Gidrometallurgiya usuli uchun tanlab eritishga mo'ljallangan kuyindi quyidagi talablarga javob berishi kerak:


- 1) sulfidlarda oltingugurt miqdori iloji boricha kam bo'lishi kerak (0,1-0,3 %);
- 2) eriydigan sulfat holati me'yorli bo'lishi kerak (Sso_4 2-4 %);
- 3) mayda fraktsiyasi (0,15 mm) yuqoriroq bo'lishligi;
- 4) ferrit va silikat shakldagi rux miqdorining me'yoridaligi. Bunday talablar gidrometallurgik usulni mazmunidan kelib chiqadi.

Zamonaviy amaliyotda tanlab eritishga kukun - kuyindini qaynar qatlam (QQ) pechlarida, 900-1000 °C oralig'ida olib boriladi.

Sulfidli rux boyitmasini kuydirish jarayonining nazariyasi


Jarayonning kimyoviy reaksiyalari deb, dastlabki xom ashyoni birin-ketin o'tadigan kimyoviy o'zgarishlariga aytiladi. Jarayonning kimyoviy yakuniy mahsulotlar bilan tavsiflanadi.



Dastlakbi reaksiyalar uch turda bo'lishi mumkin:



Tajribada aniqlangan, sulfidni oksidlanishdan boshlab, 900 °C gacha, birinchi qattiq mahsulot bo'lib, ZnO paydo bo'ladi. Yuqoriroq haroratlarda moddaning bug' holatiga o'tishi ko'rinadi. Bu jarayon (3) reaksiyani oqib o'tishi bilan tushuntirsa bo'ladi.

Ikkilamchi rux sulfatlari quyidagi reaksiyalar natijasida paydo bo'lishlari mumkin:





Yuqorida qayd etilgan kimyoviy reaksiyalarning termodinamik ko'rsatkichlari quyidagilar:


Reaksiya	t, °C	G, kj	lg Kp
$\text{ZnS} + 2\text{O}_2 = \text{ZnSO}_4$	25	- 675	118,6
	1000	- 383	36,3
$\text{ZnS} + 1,5\text{O}_2 = \text{ZnO} + \text{SO}_2$	25	- 440	77,4
	1000	- 253	24,0
$\text{ZnO} + \text{O}_2 = \text{Zn} + \text{SO}_2$	25	- 104	18,3
	1000	- 123	11,7

Sulfidlarni oksidlanish ikkilamchi reaksiyalarning termodinamik tavsiflari:

Reaksiya	t, °C	G, kj	lg Kp
$\text{ZnS} + 2\text{O}_2 = \text{ZnSO}_4$	25	- 76,5	118,6
	1025	- 12,2	0,49
$2\text{SO}_2 + \text{O}_2 = 2\text{SO}_3$	25	- 196	24,3
	1025	- 179	16,80

Ikkilamchi oksidlanish ikkilamchi reaksiyalarning muvozanat doimiyligi me'yoriy qiymatlarga egadir. Shuning uchun bu reaksiyalar aylanuvchan bo'lib, oxirigacha etmaydi va o'tish darajasi harorat va kislorodni portsial bosimiga bog'liqdir.

Rux boyitmasini kuydirishda sulfat paydo bo'lishi texnologik ahamiyatga ega. Bu sulfatlarni termodinamik turg'unligi reaksiya ajralishi muvozanati bilan baholaymiz:



Ushbu reaksiyani o'zgaras doimiyligi haroratga bog'liqdir:

$$\lg P_{\text{SO}_3} = 11,757 - 8586,0 / T \quad (9)$$

Rux boyitmasini kuydirishda, gaz tarkibida SO_2 va O_2 miqdorligiga bog'liq bo'lgan holda, sulfatning maksimum paydo bo'lish harorati 750 – 850 °C to'g'ri keladi.

Kuydirish davrida rux ferrit va silikat shakllarga bog‘lanishi mumkin:



Bu ikkita birikma, keyingi tanlab eritishda sulfat kislotasida qiyin erimaydi va ruxni isrofgarchilini oshiradi. Shuning uchun jarayon shunday boshqarilishi kerakki – birikmalar iloji boricha kamroq hosil bo‘lsinlar.

Rux boyitmalarida ko‘pincha qo‘rg‘oshin va kadmiy bor. Asosan ular sulfid xossalarida mavjuddir: PbS – galenit va CdS – grikorit.

Kuydirish paytida qo‘rg‘oshin sulfidi PbO holatiga 700–800 °C engil o‘tadi. Qo‘rg‘oshin oksidi esa noruda moddalar bilan reaksiyaga kirib past haroratlarda eriydigan birikmalar paydo qilishi mumkin.

Kadmiy sulfidi 735 °C da alanga oladi va oksid shakliga o‘tadi. Ikkala sulfidlar yuqori haroratda uchuvchanlik xususiyatiga ega. Bu xususiyatni texnologlar bilib, metallarni jarayon mahsulotlariga o‘tishini hisoblashlari kerak.

Rux boyitmalar mis xalkopirit, xalkozin va kovellin turlarida uchraydi. Bu birikmalar o‘zlarini kuydirishda o‘zgarishlari mis xom ashyosini qayta ishlashdagi jarayonlariga o‘xshashdir.

Zamonaviy zavodlarda rux boyitmasini kuydirish «QQ» pechlarida o‘tkaziladi. Bu jarayonning afzalliklari [7]:

- 1) yuqori ishlab chiqarish unumdorligi (oddiy pechlarga nisbatdan 2 – 3 marta yuqoriroq).
- 2) kuydirish jarayonining tartiblanishi va mahsulotni sifatli qilishi;
- 3) SO₂ ni gazdagi miqdorining ko‘pligi va undan sulfat kislotasini olish qulayligi;
- 4) tanlab eritishda salbiy ta’sir etuvchi ferrit va silikat birikmalarini cheklangan holatda paydo bo‘lishi va boshqalardir.

1.3. Sulfidli rux boyitmasini «Qaynar qatlam» pechida kuydirish amaliyoti

Rux zavodlarda, tarkibi har xil bo'lgan, bir necha boyitmagalar ishlatiladi. Shixta tayyorlash davrida boyitmagalar shunday nisbatlikda olinadiki, ular rux, yo'ldosh foydali element va zarar komponentlar bo'yicha aniq tarkibga ega bo'lishi zarur.

Qayta ishlashga kelgan rux boyitmagaini taxminiy tarkibi, %: 45-60 Zn; 29-35 S; 6-12 Fe; 1,5-5,0 Al_2O_3 ; 0,2-4,4 Pb; 0,1-3,0 Cu; 0,4-3,0; SiO_2 ; 0,5-1,5 CaO; 0,2-1,0 MgO; 0,25-0,8 Cd; 0,01-0,4 As; 0,01-0,3 Sb, 20-160 g/m Ag va 0,5-10 g/t Au.

Shixtani pechga quruq yoki pulpa shaklda yuklanadi. Tashqaridan keltirilgan va tarkibi yaqin bo'lgan boyitmagalar quruq shaklda qo'llaniladi. Agarda rux zavodi boyitish fabrikasi yonida bo'lsa, yoki boyitmagalarni tarkibi katta farq qilsa, pulpa shaklda yuklash maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Bunga asosiy sabab pulpadagi moddalar yaxshi va to'la aralashtirilishi ortiqcha namlanadi, metallik dastgoxlar korroziyaga uchraydi va gaz chiqarish sistemasini ishlashi qiyinlashadi.

Quruq shixta olish uchun boyitmagalar bir xil moda olish darajasiga aralashtiriladi va quritish barabanida, qoldiq namlik 6-8 % gacha quritiladi.

O'zbekiston rangli metallurgiyasida tsilindrik shakldagi «QQ» pechlari keng tarqalgan. Ularning podini maydoni 34 m, forkameralar maydoni 1,5 m, balandligi – 10 m, kuydirilgan moddani ajralib chiqish balandligi 1,0-1,2 m. Soplardagi teshiklar kesimi maydoni, podning maydoniga nisbatdan 0,8-1,0 % tashkil qiladi.

Kukunsimon sulfidli rux boyitmagaini gaz fazasini 10-12 m/s tezlik ostida kuydirish olib boriladi. Gazning tezligini oshirish ortiqcha chang ajralib chiqishiga olib keladi. Agarda gazning tezligi kamroq bo'lsa, shixta moddalarni qaynash muhitdan ajralib chiqib, soplolariga cho'kib qoladi [3,6].

«QQ» pechini normal ishlashi uchun uning xajmida issiqlik balansini ushlab turish kerak. Issiqlikni taqsimlanishi, %: texnologik gazlar bilan 60 %; chang va devor orqali sarflanishi 20 %. Issiqlikni qolganini maxsus moslama yordamida pechdan chiqarilishi kerak. Aks holda issiqlik to'planib moddani o'ta qizishiga

olib kelishi mumkin. Ortiqcha issiqlik maxsus trubkali kesson orqali pechdan tashqariga chiqariladi.

Texnologik gazlar kotel – utilizator orqali o'tkaziladi. Bu dastgoxda issiqlikni 55 % gazi par olishga ishlatiladi. Qolgan issiqlik isrof bo'ladi Kotel-utilizator yuqori parametrlil por ishlab chiqaradi (400-565 °C, 4,5 - 6,0 MPa va 1,1-1,4 t/t boyitmaga).

Pechga beradigan havoni xajmi nazariya hisobotlardan kelib chiqadi va 1500-1600 m³/t boyitmaga tashkil qiladi. Havoning ortiqcha berilishi 20-30 % (= 1,2 / 1,3).

Kuydirish pechini normal ishlashi uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- 1) shixtani mineralogik va o'lchamlari doimiyligi va qatlamga bir xil tezlikda yuklanishi;
- 2) havoni podina maydoni bo'yicha bir xil taqsimlanishi;
- 3) kelayotgan havoni doimiy bosimi;
- 4) pechning ishchi xajmida va boshqa dastgoxlarda o'zgarmas bosim bo'lishi.

Bu talablar asosan qaynar qatlamni paydo bo'lishi va mustahkam ishlab turishiga qaratilgan. Sanoat ishlab chiqarish sharoitida qaynash qatlam havoning 15-16 kPa bosimida paydo bo'ladi. Bulardan 4-5 kPa li pechning podinasi gidravlik qarshiligini bartaraf qilishga sarflanadi. Demak «QQ» pechining gidravlik qarshiligi taxminan 10 kPa tashkil qiladi. Bunday bosim podinada normal qaynar qatlam hosil qiladi, bu taxminan 1 t/m² tashkil qiladi.

Kuydirish sharoitlarini texnologik ko'rsatkichlarga ta'siri

Kuydirish jarayonini muhim texnologik ko'rsatkichlari quyidagilardir:

- 1) Ishlab chiqarish unumdorligi;
- 2) Kuydirilayotgan shixtaning jarayon mahsulotlarida taqsimoti (kuyindi, chang, gaz);
- 3) Texnologik gazdagi SO₂ ni miqdori;

4) Kuyindini sifati (kukunligi, sulfid va sulfat shakldagi oltingugurtni miqdori, kremniy dioksid va temirni mavjudligi).

Zamonaviy pechlarda havoni berish tezligi 10-13 m/s, nisbatlik sarfi 350-450 m³/(m² • soat) qo'llaniladi. Havodagi kislorodni miqdori 28-32 % gacha ko'tarilgan. Bunday sharoitlarda ishlab chiqarish unumdorligi 8-10 t/(m²•sutkada)ni tashkil qiladi. Kislorodni miqdorligini bundan ziyod ko'tarish noma'quldir, chunki kislorod olish sarf xarajatlar unumdorlik oshishi bilan qoplamaydi. Undan tashqari, ortiqcha ajralib chiqqan issiqlikni pechdan chiqarish ham katta muammoga aylanib qoladi [3].

Moddalarni kuydirish 950-970 °C oralig'ida amalga oshiriladi. Jarayonda qattiq moddalarni ajralib chiqishi, %: kuyindi 65; tsiklon changi 30; elektrofiltr changi 3,3; gazxoxod changi 1,7.

Texnologik gazlarda SO₂ ni miqdorligini ko'payishi, uni sulfat kislotasi olishda qulaylik yaratadi. Oddiy havoda kuydirishda pechdan chiqayotgan gazda SO₂ miqdori 8,5-10 % tashkil etadi. Kislorodga boyitilgan havo qo'llansa – SO₂ miqdori 8,5-10 % tashkil etadi. Kislorodga boyitilgan havo qo'llansa – SO₂ ni miqdori 12-15 % gacha ko'tariladi. Ammo, gazxoxod sistemalari yaxshi germetik qoplanmaganligi sababli, ikkilamchi havo tortiladi va natijada SO₂ ni miqdori bir oz kamayadi.

Kuyindini sifati unga qo'yilgan talab bilan baholanadi. Kuyindida sulfidli oltingugurtni miqdori 0,1-0,3 % dan oshmasligi uchun, boyitmaganing kuydirishda desulfuratsiya darajasi 99,0-99,7 % bo'lishi kerak. Bunday yuqori desulfuratsiya darajasi jarayonning yakuniy davrda tezlikni o'ta pasayishi bilan bog'liqdir. Sulfid kurtagini yadro qismi kuyindi va gaz bilan kuchli to'sqinlik yaratadi. SHuning uchun kurtakni tez yonishi bunday oltingugurtni kam miqdorini etkazib bera olmaydi.

Kerakli natija moddani pechda uzoq davr bo'lishi bilan amalga oshiriladi. Amaliyotda bir moda o'rtacha pech ichida 12-14 soat bo'ladi.

Sulfatli oltingugurtni me'yorli miqdorligi (2-4 %) 950 °C dan past haroratda olib borish kerak.

Odatda kuyindi sulfat kislotasida eriydigan rux birikmalari 88-92 % oralig'ida bo'ladi. Agarda boyitmagada kremniy dioksidi yuqori miqdorlikda bo'lsa, Zn SiO₂ birikma paydo bo'lmasligi maqsadida, kuydirishni pastroq haroratda (900-920 °C) olib borish kerak.

Odatda, kuyindi metalni miqdori, boyitmagaga nisbatdan, bir oz ko'proq. Masalan, agar boyitmagada rux miqdori 50,9 % bo'lsa, kuyindida bu ko'rsatkich 60,3 % tashkil qiladi.


Ajralib chiqqan changlar kuyindi bilan birga tanlab eritishga yuboriladi.

1.4. Kuydirilgan boyitmani tanlab eritish jarayonlari


Kuyindini tanlab eritishni asosiy maqsadi kuyindi tarkibidagi rux birikmalarini iloji boricha eritma o'tkazish va elektrolizga toza eritma olishdir. Eritishni sulfat kislotasi yordamida olib boriladi. Sulfat kislotasini tanlashda quyidagilar hisobga olingan:

- 1) Rux oksidi – ZnO yaxshi erishi;
- 2) Bo'lajak elektrolitik tiklanishda qulaylik;
- 3) Rux zavodlarida sulfat kislotasini mavjudligi;

Rux oksidi sulfat kislotasini kuchsiz eritmasida yaxshi eriydi, rux sulfati esa – suvda:



Rux sulfidi qizitilgan kuchli sulfat kislotasida erishi mumkin:




Bunda zaxarli servodorod ajralib chiqadi.

Kuydirish davomida bir qancha rux silikati, (n ZnO•mSiO₂), ferrit (x ZnO • e Fe₂O₃) va alyuminatlari (ZnO•Al₂O₃) paydo bo'ladi. Bu birikmalar sulfat kislotasida qiyin eriydi. Ularni erish qobiliyati harorat va sulfat kislotasini boyitmagasiyasi olib borishi bilan ko'payadi [4].

Masalan, ferritdan ruxni eritmaga o'tkazish uchun sulfat kislotasini boyitmagasiyasi 200-300 g/l va 80-90 °C harorat talab qilinadi.

Ruxdan tashqari, orkarokda temir, mis, kadmiy, qo'rg'oshin, kumush, oltin, nikel, kobalt, marganets, bariy, kaltsiy, alyuminiy va boshqa metallar bor.

Kadmiy xususiyatlari bo'yicha ruxga yaqin, uni oksidi CdO sulfat kislotasida yaxshi eriydi:



Kuyindidan eritmaga 85-90 % kadmiy o'tadi. Temir kuyindida, asosan rux va mis ferritlar shaklda uchraydi. Bir qancha temir oksidlari Fe_2O_3 , va Fe_2O_3 ham bor. Sulfat eritmasida Fe_2O_3 esa qisman eriydi.

Kuydirish pechining tsiklon changida bir oz $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$ uchraydi. Uch valentli temir sulfati eritmada hosil bo'ladi:



Eritmada $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$ mis birikmalari, SO_2 va metal sulfidlari bilan ikki valentli temir sulfati FeSO_4 ga tiklanadi. Bu jarayon ruxni kuyindidan eritmaga, quyidagi reaksiya orqali, o'tishiga ko'maklashadi:



Eritmaga kuyindidan faqat 3-4 % temir o'tadi, uni miqdorligi 1-2 g/l tashkil qiladi. Bunday mikdorlik bo'lajak mishyak, surma, germaniy va boshqa moddalardan gidrolitik tozalashda yordam beradi.

Mis kuyindida oksid (CuO , Cu_2O), ferrit ($n \text{ CuO} \cdot \text{Fe}_2\text{O}_3$), silikat ($x \text{ Cu}_2\text{O} \cdot e \text{ SiO}_2$) shakllarda uchraydi. Eng oson CuO eriydi va CuSO_4 ni hosil qiladi. Mis ferriti, pux ferritiga o'xshab, qiyin eriydi. Tanlab eritishda taxminan misni yarmi eriydi, yarmi esa kekda qoladi.

Surma (III) va mishyak (III) oksidlangan birikmalari kuyindini tanlab eritishda $\text{As}_2(\text{SO}_4)_3$ va $\text{Sb}_2(\text{SO}_4)_3$ shakllarda eritmaga o'tishadi. Surma (V) va mishyak (V) oksidlari qiyin eriydigan birikmalardir.

Nikel, kobalt va marganetslar eriydi va NiSO_4 , CoSO_4 va MnSO_4 sulfatlarini hosil qiladi.

Tanlab eritishda qo'rg'oshin, deyarli to'liq quyidagi reaksiyaga asosan, kekga o'tadi.:



Qo'rg'oshin, mis va rux silikatlarini erishi eritmani kremniy birikmalari bilan ifloslantirishga olib keladi. Bu jarayon tanlab eritishdan bo'lajak cho'ktirish va filtrlashlarni qiyinlashtiradi.

Kumush kuyindida Ag_2S va Ag_2SO_4 shaklda uchraydi. Kumush sulfati yaxshi eriydi, keyin esa eritmada mavjud bo'lgan xlor ionlari bilan qiyin eriydigan AgCl birikmasi shaklda cho'ktiriladi. Kumush sulfidi erimaydi va kekda qoladi. Oltin to'liq qattiq qoldiqlarda qoladi.

Kaltsiy va bariy oksidlari sulfat kislota eritmalarida qiyin eriydigan eritmalar hosil qiladi. Jarayonning kislotalasi:



Qo'rg'oshin, kaltsiy va bariy sulfat kislotalasini qismini qiyin eriydigan sulfatlarga bog'laydi. Buni hisobga olganda, kuydirish davrda sulfatli oltingugurt mikdori bir oz ko'paytirish kerak bo'ladi.

Xlor, ftor, natriy va magniy birikmalari oson eriydi va eritmada to'planadilar. Noyob metallar-talliy, galliy, indiy va germaniyalar qisman eritmaga o'tadilar.

Kuydirilgan boyitmagani tanlab eritish sxemalari

Dunyo amaliyotida turli xil tanlab eritish sxemalari qo'llaniladi: bir, ikki va uch bosqichli, davriy va uzluksiz va boshqalardir. Eng keng tarqalgan sxema-bu uzluksiz qarama-qarshi oqimli ikki bosqichli tanlab eritishdir.

Kuyindidan ruxni erishi H_2SO_4 boyitmagasiyasi va harorat oshishi bilan tobora ko'tariladi. Ammo bunda zarra moddalar ham erishi mumkin. Bu esa bo'lajak elektrolitik jarayonlarda to'sqinlik qiladi.

Eritmada ko'p zarra moddalarni miqdori pH ni qiymatini 5,2-5,4 gacha ko'tarish mumkin. Keyin esa rux gidrolizga uchrab gidroksid shaklda cho'kmaga tushib qolishi mumkin.

Qarama-qarshi oqim printsipida tanlab eritish ikkinchi bosqichli kuchli eritma bilan olib borishga imkon beradi (130-150 g/l H_2SO_4). Birinchi bosqichda esa tanlab eritish kuchsiz eritma bilan olib boriladi (50-60 g/l H_2SO_4). Buning natijasida birinchi bosqichda olinadigan eritmada sulfat kislotalasi yo'q (pH=5,2-

5,4). Bunday tanlab eritishda neytral eritmada zarra moddalar deyarli yo‘q. Bu esa bo‘lajak eritmani tozalashni osonlashtiradi va sarf-xarajatlarni kamaytiradi [10].

Tanlab eritishni birinchi bosqichida (neytral tsikl) quyidagi texnologik masalalar echiladi:

- 1) kuyindidan rux sulfatini va rux oksidini qisman erishishi;
- 2) eritmada ortiqcha sulfat kislotasini neytralizatsiyalash;
- 3) eritmani zarra moddalardan gidrolitik tozalash;
- 4) eritmani qattiq moddalardan ajratib olish;
- 5) kuyindini issiqligidan oqilona foydalanish.

Neytral tanlab eritishning yakuniy maqsadi gidrolitik usul bilan tozalanadigan moddalardan toza ruxli eritma olishdir.

Tanlab eritishning ikkinchi bosqichi (nordon tsikl) vazifalari:

- 1) kuyindidan ruxni to‘liq eritish;
- 2) zarra moddalarini erishini cheklash;
- 3) mishyak va germaniyni oksidlantirish;
- 4) eritmani zarra moddalardan tozalash;
- 5) qattiq va suyuq fazalarni bir-biridan ajratib olish.

Nordon tanlab eritishning yakuniy maqsadi eriydigan rux birikmalaridan ozod kek olishdir.

Erishish sxemalarini tanlash xom ashyoni sifatiga bog‘liqdir. Ishlab chiqarishning katta xajmida, xom ashyo tarkibi o‘zgarmasligida uzluksiz tanlab eritish maqsadga muvofiqdir.

Davriy tanlab eritish, tez moslashuvchi bo‘lganligi sababli, zarra moddalari yuqori miqdorli bo‘lgan xom ashyoni qayta ishlashda afzalrokdir.

Davriy tanlab eritish, uzluksizga nisbatdan, kamroq ishlab chiqarish qayta ishlashda ko‘proq sarf-xarajatlarni talab qiladi. Bir bosqichli tanlab eritish, odatda, davriy sxemasi bo‘yicha olib boriladi.

Past sifatli konentratni qayta ishlashda, qaysilarda mishyakni miqdori 0,5 % bulgan, yoki kremniy dioksidi miqdori 8 % gacha bo‘lgan, bir bosqichli sxemani qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Tanlab eritishning amaliyoti

Tanlab eritish davriy sxema bo'yicha o'tishning shartli talabi – kuyindi sovutilgan va klasslarga bo'lingan bo'lishi kerak. Pechdan chiqqan kuyindi va changlarni aralashmasini harorati 700-750 °C bo'lgani uchun, ularni aerokolodilnik yoki konveerlarda sovutiladi.

Sovutilgan aralashmani aeroseparatorda kattaligi bo'yicha klasslarga bulinadi. Yirik fraksiya (<0,3 mm) zoldirli tegirmonda yanchiladi va yangitdan klassifikatsiya kilinadi. Klasslangan kuydirilgan boyitmaga tanlab eritishga yuboriladi [2,3,7].

Odatda klassifikatsiyani ikki bosqichda olib boriladi: neytral va nordon. Dastlabki (neytral) klassifikatsiya hamma pulpani ikki fraksiyaga bo'ladi: qum (+0,30 mm) va il (-0,3 mm), har bir fraksiya alohida tanlab eritishni talab qiladi. Neytral klassifikatsiyadan chiqqan eritmani neytral tanoab eritishga yuboriladi. Qum fraksiyasini esa ishlatilgan elektrolit bilan tanlab eritiladi (pulpani qoldiq nordonligi 20-60 g/l H₂SO₄).

Qum fraksiyasini mexanik, yoki pnevmatik agitatorlarda tanlab eritiladi. Bunda, ikki valentli temirni uch valentlikka oksidlantirish uchun, marganets rudasi, yoki pirollyuzit MnO qo'shiladi. Tanlab eritishdan so'ng, qum yana klassifikatsiya qilinadi. Nordon klassifikatsiyadan chikkan qumlik mahsulot nordon tanlab eritishdagi Rux kekidan deyarli farq kilmaydi. Shuning uchun bu fraksiya velts pechiga yuboriladi.

Neytral klassifikatsiyasidan ajralib chiqqan eritmani, tsiklon va elektrofiltr changlari bilan, neytral tanlab eritishga yuboriladi. Bu tanlab eritish pnevmatik tipidagi birin-ketin o'rnatilgan agitatorlar qatorida o'tkaziladi. Birinchi agitatorida sulfat kislotasini boyitmagasiyasi 50-60 g/l tashkil etadi. Tanlab eritish davrida kislota neytrallanadi. Bunda aralashmalar gidrolizga uchrab cho'kmaga o'tishadi. Gidroliz jarayoni birinchi agitatorga marganets rudasini qo'shib eritmani rN ni o'zgartirib boshqariladi. Oxirgi agitatorida suyuq faza pH ni 5,2-5,4 gacha ko'tariladi. Gidrolizni to'liq o'tilgani oxirgi agitatoridan chiqayotgan pulpadagi

temir (II) miqdorligi orqali baholanadi. Odatda bu miqdorlik 30-50 mg/l tashkil qilishi kerak.

Neytral tsikldagi oxirgi agitatoridan pulpani quyuqlashtirgichga yuboriladi. Neytral quyuqlashtirgichdan chiqqan eritma, odatda, yaxshi tindirilgan qattiq moddani miqdorligi 1 gr/l dan oshmaydi. Eritma o'zi bilan tanlab eritishni mahsuloti hisoblanadi. Uni zarralardan tozalab, ruxni elektrolitik tiklanishga yuboriladi.

Neytral quyuqlashtirgichlarni quyuq mahsuloti J:T=3-4 ga ega bo'lib, nordon tsiklni pnevmatik agitatorlarga yuboriladi. Nordon tanlab eritishning birinchi agitatoriga miqdorligi 40 gr/l rux va 120-160 g/l H_2SO_4 bo'lgan ishlatilgan elektrolit beriladi.

Oxirgi agitatorida sulfat kislota miqdorligi 0,5-1,0 gr/l gacha pasayadi, Q:S ni nisbatligi esa 10-12 gacha ko'tariladi.

Nordon tsiklda oxirgi agitatorida pulpa quyuqlashtiriladi. Quyuqlashtirgichda pulpa oxirgi agitatorida. ZnO qo'shimcha eriydi, kislota neytrallashib pH 4,0-4,5 qo'tariladi, aralashmalar gidroliz bo'lib cho'kmaga o'tadi.

Tanlab eritish dastgoxlari

Uzluksiz tanlab eritishga, odatda, pnevmatik agitator pachuk qo'llaniladi. Pachuk o'zi bilan zanglamaydigan po'lat yoki temirbetondan tayyorlangan tsilindr shaklidagi chandir. Chan ichki yuzasi qo'rg'oshin yoki kislota ta'sir kilmaydigan keramika bilan futerlangan (himoya qilingan). Channing balandligi 6-10 m, diametri 3-4 m, ishchi xajmi 40 – 100 m.

Channing markazidagi vertikal truba - aerolift o'rnatilgan. Bu truba orqali 0,2 – 0,25 MPa bosimda havo beriladi. Havo pulpa bilan aralashib engil aralashma hosil qiladi va tepaga og'ir pulpa bilan siqib chiqariladi. Aeroliftni tashqari tomondan og'ir, havo bilan to'yinmagan, pulpa pastga va tanlab eritish reaksiyalarini o'tishiga ko'maklashadi [2].

Tanlab eritishning kerakli davomiyligini mavjud qilish maqsadida birin-ketin o'rnatilgan bir necha pachuklar o'rnatiladi. Dastlabki pulpani birinchi pachukga yuklanadi, oxirgi pachukdan esa pulpani quyuqlashtirgichga yuboriladi.

Davriy tanlab eritishda jarayon mexanik aralashtirgichli agitatorida olib boriladi. Uning xajmi 150 m^3 etadi. Aralashtirgich moslamada kislotaga bardosh po‘latdan tayyorlangan propelfli dastgoxi o‘rnatilgan.

Kerakli bo‘lsa, agitatorlarga isitish moslamasi o‘rnatiladi va tanlab eritish yuqori haroratlarda olib borilishi mumkin buladi.

Kuydirilgan rux boyitmagaini tanlab eritishda olingan pulpani qattiq va suyuq fazalarga ajratiladi. Fazalarni ajratish uchun quyuqlashtirish va filtrlash qo‘llaniladi.

Quyultirgich o‘zi bilan diametri 10-18 m va balandligi 4-5 m bo‘lgan channi hosil qiladi.

50 – 100 qattiq moddali pulpani changa yuklanadi. Quyultirgichda qattiq moddalar cho‘kadi va moslamadan chiqariladi. Pulpani suyuq fazasi channi yuqori qismdan chiqarilib bo‘lajak texnologik jarayonlarga yuboriladi.

Quyuqlashtirish jarayonini jadallashtirish maqsadida pulpaga poliakrilamid (PAA) qo‘shiladi. Poliakrilamid mayda zarrachalarni kattalashtirib og‘ir flokulalarga o‘tkazadi. Tindirilgan eritmani, qaysida dearlik qattiq modda yo‘q tozalashga yuboriladi. Q:S nisbati 2 – 3 ga teng bo‘lgan. Quyultirilgan pulpani filtrlashga yuboriladi. Quyuqlashtirgichni ishlab chiqish unumdorligi: neytral tsiklda 2,5-4,0 m tirilgan eritma 1 m^2 ga bir sutkada, moddani boyitmagasiyasini 20 – 50% tashkil qiladi.

Diskali filtrni unumdorligi 1 m filtrlash yuzasiga bir sutkada 1– 2 m tashkil qiladi. Kekning namligi 30-35%. Umuman filrlash yuzasi 80-100 m tashkil qiladi.

Rux sulfat eritmasini zarralardan tozalash jarayonining nazariyasi va amaliyoti

Sulfat eritmasidagi mavjud bo‘lgan hamma zarra modddalarni 4 guruxga bo‘lsa bo‘ladi.

1. Fe, Al, Cu, As, Sd, Ge, Jn, SiO_2 ;
2. Cu, Cd, Ni, Ta.
3. Co, Cl, F.

4. K, Na, Mg, Mn.

Birinchi guruxdagi aralashmalar eritmadan gidroliz, birga cho'kish, adsorbtsiya va koagulyatsiya yo'llari bilan ajralib chiqadi.

Ikkinchi guruxdan moddalardan tozalash - tsementatsiyaon usuli bilan olib boriladi. Bunda elektr salbiyrok bo'lgan rux undan elektr manfiy elementlarni siqib chiqaradi va cho'kmaga o'tkazadi. Rux o'zi esa ion holatda eritmada koladi va uni boyitadi.

Uchinchi guruxdagi moddalar faqat kimyoviy usul bilan chiqariladi. Ular maxsus qo'shilgan reagent bilan qiyin eriydigan birikmalar hosil qilib cho'kmaga o'tishadi.

To'rtinchi guruxdagi elementlar umuman ajralib chiqmaydi va eritmada to'planadi. Ulardan tozalash uchun eritmani qismi jarayondan chiqarilib, shu elementsiz toza eritmaga almashtiriladi, chiqarilgan eritmada rux keyinchalik ajratib olinadi.

Gidrolitik tozalash

Gidrolitik tozalash metall kationlarni eritmada suv bilan o'zaro bog'lanib qiyin eriydigan gidrooksid hosil qilishga asoslangan. Bunda metalni boyitmagasiyasi pasayadi va eritma tozalanadi [3].

Umumiy holda kationni gidroliz reaksiyasi yoziladi:



bunda: Me^{n+} - metall kationi;

n- kationni zaryadi.

19 Reaksiyasini o'tishi eritmani pH ga bog'liqdir: nordon muxitda metall gidrooksidi eriydi, aslida esa cho'kadi.

Har bir metalga o'ziga xos eritmani pH qiymati borki, qaysidan gidroliz reaksiyasi muvozanatda bo'ladi. Bu pH ning nomi – pH g. Standart sharoitlar uchun ($a=1 \text{ mol/l}$, $t= 25\text{C}^0$) bir qancha pH qiymatlari:

Metal kationi	Co ³⁺	Sb ³⁺	Sn ²⁺	Fe ²⁺	Al ³⁺	Cu ²⁺	Zn ²⁺	Fe ³⁺	Cd ²⁺
pH	1,0	1,2	1,4	1,6	3,1	4,5	5,9	6,7	7,0

Bu qatorda ruxdan chap tomondan joylashgan aralashmalar gidroliz yo‘li bilan tozalanishlari mumkin.

Neytral tanlab eritishda pulpani pH 5,2 – 5,4 oralig‘ida ushlanib turadi. Bunda rux gidroliz ham bo‘lmaydi. Ionlar So (III), Sb (III), Sn (II), Fe (III), Al(III) bu sharoitlarda erimaydigan gidroksidlar hosil qilishadi.

Agar (19) reaksiya standart sharoitlarga o‘xshamasa, pH qiymati kationni eritmalaridagi (aktivligiga) bog‘liqdir.

$$pH = A - 1/n \lg C Me^{n+} \quad (20)$$

bunda: S – kationni eritmadagi boyitmagasiyasi, mol/l;

A – kationga xos doimiylik.

$$O'z\ qatorida\ A = -\lg L - \lg K \frac{1}{n} - \lg \quad (21)$$

bunda: L – gidrooksidni erish qobiliyati;


K – suvni ionlar ko‘paytmasi;

Me – kationni aktivlik koeffitsienti.

Shunday kilib, neytral tanlab eritish sharoitlarda qiyin eriydigan Fe (III), As (III), Cd (III), alyuminiy, Cu (II) va bir qancha noyob metallar gidrooksidlari cho‘kmaga o‘tishadi va sulfat eritmasi bu zarra moddalardan tozalanadi.

Eritmani tsementatsiya yo‘li bilan tozalash

Sementatsiyani elektroqimyoviy reaksiyaga asoslangan:



Bunda aralashma metall ion holatidan metallik holatiga o‘tadi, va cho‘kadi, rux – aksincha.

Sementatsiya jarayonining asosida tsementator metalning ionlanishi quyilgan:



Rux ionlari eritmaga o'tadi, lekin elektronif metalda qoladi va unga salbiy zaryad beradi. Standart sharoitlarda ($25^{\circ}\text{C} - \alpha_{\text{Zn}} = 1 \text{ mol/l}$) rux ionlarni o'z-o'zidan eritmaga o'tishi to'xtaydi, qachonki metalni potentsiali $E = -0,763 \text{ V}$ ga etadi. Ionlanish davom etishi mumkin bo'ladi, agarda metallik ruxdagi ortiqcha elektronlarni qandaydir ion o'qziga qabul qilsa, masalan Ca, Cu, Ni va boshqalar. Bunda aralashma metal ioni tiklanadi va sirtida metall shaklda o'tiradi:



Metallik ruxdan elektronlarni faqat elektro-musbatroq metall va elementlar qabul qilishlari mumkin. Demak, tsementatsiya usuli bilan eritmadan faqat ruxdan elektr musbatroq aralashma zarra metallarni ajratib olish mumkin [10].

Qaysi metallar ajratib olishligi mumkinligini ularni standart elektrod potentsiallarini solishtirib aniqlasa bo'ladi. Hamma metallar, qaysilarni standart potentsiali $-0,763 \text{ V}$ dan musbatroq bo'lsa, tsementatsiya yo'li bilan tozalanishlari mumkin.

Standart potentsiali bo'yicha bir – necha ma'lumotlar:

Metall	E°, V	Metall	E°, V
Na (I)	-2,714	Fe (II)	- 0,0440
Al (III)	-1,663	Cb (II)	- 0,403
Mn (II)	- 1,179	Co (II)	- 0,277
Zn (II)	- 0,763	Fe (III)	- 0,037

Sementatsiya natijasida cho'kma hosil bo'ladi, qaysida mis, kadmiy va reaksiyaga kirmagan rux mavjuddir. Cho'kma – mis – kadmiy keki – filtrlanib kadmiy olishga yuboriladi.

Eritmani kimyoviy tozalash usuli

Kimyoviy usul bilan rux sulfat eritmasini kobaltdan tozalanadi. Eritmada kobaltni miqdori 7-10 mg/l tashkil qiladi. Agarda uni boyitmagasiyasi 3-4 mg/l dan ziyodroq bo'lsa, bo'lajak ruxni elektroliziga halaqit beradi.

Kimyoviy usulda eritmaga reagentlar nitrozo – naftol ($C_{10}H_6HOOH$), yoki Sheippe tuzi ($Na_3SbS_4 \cdot nH_2O$) beriladi. Jarayon 2-4 soat, 40-50 °C da o'tadi. Shu davrda kobaltni qiyin eriydigan birikmalari hosil bo'ladi va cho'kmaga o'tadi. Cho'kma eritmadan filtrlarda ajrashiladi. Filtrlashdan oldin eritma oxak bilan $pH=5,4$ neytrallanadi.

Kobaltni qoldiq miqdori eritmada 1 – 2 mch/l tashkil qiladi. Cho'kma esa 2% kobaltga ega. Bu cho'kmadan kobaltni ajratib olish mumkin.


Eritmada xlorni miqdori 500-800 ml/l gacha boradi. Bo'lajak texnologik operatsiyalarga xalaqit bermasligi uchun, xlorni miqdorligi 80-150 ml/l dan oshmasligi kerak.

Xlordan eng effektiv tozalash usuli – uni kumush tuzlari bilan cho'ktirishdir:



Xlor kuchsiz nordon muxitda, qoldiq miqdorligi 1 – 2 ml/l gacha cho'ktiriladi. Odatda etirmani qisman tozalashda va tozalanmagan eritma bilan aralashtiriladi.

Bir xil zavodlarda mis tuzlari yordamida tozalanadi.











Xlorning qoldiq miqdori 100 – 150 ml/l tashkil qiladi.

II. TEXNOLOGIK HISOBLAR

2.1. Qaynar qatlam pechlarida rux boyitmalarini kuydirish jarayonini xisoblash

Kuydirish jarayonida quyidagi sulfidlarning oksidlanish reaksiyalari oqib utadi:



Dastlabki maълumotlar:

Rux boyitmalarining kimyoviy tarkibi, %: 52 Zn; 1.4 Pb; 6.4 Fe; 1.0 Cu; 0.4 Cd; 1.3 SiO₂; 1.1 CaO; 0.7 Al₂O₃; S-xisobot buyicha, boshqalar – 100% dan farqini tashkil etadi.

Mineralogik tarkibi: rux-sfalerit shaklida ZnS; qurg’oshin- galenit shaklida PbS; mis- 1:1 nisbatlikda xalkopirit shaklida CuFeS₂ va kovellin shaklida CuS;

Qolgan temir - 3:1 nisbatlikda pirit FeS₂ va troilit FeS shaklida; kadmiy-silfid shaklida; bush tog’ jinslari- kremnezem, oxak, glinozem ko’rinishlarda mavjud bo’ladi.

6% nam dastlabki rux boyitmasi kuydirish jarayoniga keladi

Pechga 30% gacha boyitilgan kislorod beriladi. Xavoning ortiqcha sarfi 10% ni tashkil etadi. (ortiqchalik koeffisienti=1,1)

2.7 % rux sulfidining miqdori

Kuydirish davrida chang chiqish darajasi 30%ni tashkil etadi. O’zining tarkibi bo’yicha changning tarkibi kuyindining tarkibiga o’xshashdir. CHangda

